



BOLALARDA RAXIT KASALLIGINING KECHISHI

**Sadullayeva Zulayho Alisherovna,
Urganch Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi
“Terapiya” kafedrasi bosh o‘qituvchisi**

Anotatsiya: Ushbu maqolada bolalarda raxit kasalligining kelib chiqish omillari, patogenez jarayoni, klinik kechishi, diagnostik mezonlari va davolash tamoyillari ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilindi. Maqolada kasallikning klinik belgilariga, laborator ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlarga va davolashning samarali usullariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: raxit, D vitamini, kaltsiy-fosfor almashinuvi, bolalar, suyak tizimi.

Annotation: This article analyzes the etiological factors, pathogenesis, clinical course, diagnostic criteria, and treatment principles of rickets in children based on scientific literature. Special attention is given to the clinical manifestations of the disease, changes in laboratory indicators, and effective treatment methods.

Keywords: rickets, vitamin D, calcium-phosphorus metabolism, children, skeletal system.

Kirish

Raxit - bolalarda uchraydigan, suyak to‘qimasining yetarlicha mineralizatsiyalanmasligi natijasida suyak deformatsiyasi, mushak gipotoniyasi va nerv-mushak tizimi faoliyatining buzilishi bilan kechadigan kasallikdir. Kasallik odatda hayotning 2–24 oylik davrida kuchli namoyon bo‘ladi, chunki aynan shu davrda suyak tizimi jadal rivojlanadigan bo‘ladi. Dunyo sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, raxit rivojlanayotgan davlatlarda keng tarqalgan bo‘lib, unga oziqlanish omillari, ekologik sharoit va profilaktikaning yetishmasligi sabab bo‘ladi.

Kasallikning kechishi bir xil bo‘lmay, bola organizmi rivojlanish darajasi, ovqatlanish xususiyatlari, D vitamini yetishmovchiligi darajasi va qo‘shimcha somatik kasalliklar mavjudligiga bog‘liq holda farq qiladi. Mazkur tadqiqot raxitning kechish xususiyatlarini ilmiy asosda o‘rganishga qaratilgan.

➤ **Materiallar va metodlar**

Tadqiqotda 6 oylikdan 2 yoshgacha bo‘lgan raxit tashxisi qo‘yilgan bolalarning klinik kuzatuvlari, laborator tahlil natijalari va ularning rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Ma‘lumotlar tibbiyot muassasalari kuzatuv kartalaridan olingan bo‘lib, quyidagi mezonlar asosida baholandi:

➤ **Klinik belgilarni baholash**

- suyak deformatsiyasi
- mushak gipotoniyasi
- bosh terisida yumshash (kraniotabes)



- ko'krak qafasi shaklining o'zgarishi
- "soat qadami" belgisi
- yurish rivojlanishining kechikishi
- **Laborator ko'rsatkichlar**
- qon zardobida kaltsiy, fosfor miqdori
- ishqoriy fosfataza darajasi
- 25(OH)D vitamini darajasi

➤ **Metodlar**

- tahliliy-observatsion usul
- klinik muayenalar
- laborator diagnostika
- natijalarni statistik umumlashtirish

➤ **Natijalar**

Kasallikning klinik kechishi:

Tahlil natijalariga ko'ra, raxit kasalligining kechishi uch asosiy bosqichda kuzatildi:

1. Boshlang'ich bosqich (subklinik): Bolalarda asabiylashish, uyquning buzilishi, ter ajralishining kuchayishi va bosh sohasining yumshashi (kraniotabes) kuzatildi. Kaltsiy yetishmovchiligi serqonarlik va mushak tonusining pasayishiga olib kelgan.

2. Avj olgan bosqich: Bu davrda suyak deformatsiyasi, qovurg'a yoylarining kengayishi, "bilezikchalar" shakllanishi, bosh chanog'ining kattalashishi va mushaklarning kuchli gipotonyasi aniqlangan. Harakat faolligi pasaygan, yurishning kechikishi kuzatilgan.

3. Tiklanish bosqichi: Davolash to'g'ri olib borilganda suyak tizimi asta-sekin mustahkamlangan, ammo ba'zi bolalarda ko'krak qafasi shaklining o'zgarishi va oyoq deformatsiyasi (O yoki X shakl) saqlanib qolgan.

Laborator natijalar

- Kaltsiy miqdori aksariyat bolalarda norma pastida bo'lgan (1,8–2,0 mmol/l).
- Fosfor darajasi pasayishi qayd etilgan.
- Ishqoriy fosfataza faoliyati sezilarli ravishda oshgan.
- 25(OH)D vitamini darajasi 20 ng/ml dan past bo'lgan bolalar soni yuqori bo'lgan.

Bu ko'rsatkichlar raxitning kechishini og'irlashtiruvchi asosiy metabolik o'zgarishlarni tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raxit kasalligi bir nechta omillar ta'sirida yuzaga kelib, uning kechishi bola organizmining umumiy rivojlanish darajasiga bog'liq. D vitamini tanqisligi suyak mineralizatsiyasining buzilishiga olib keladi, bu esa klinik belgilar bilan namoyon bo'ladi.



Quyosh nuri yetishmasligi, uzoq muddat yopiq xonada bo'lish, noto'g'ri ovqatlanish yoki sun'iy aralashmalar bilan boqish raxitning kechishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ichak kasalliklari, malabsorbsiya sindromi va buyrak patologiyalari kasallikni og'irlashtirishi mumkin.

Davolashning asosiy tamoyillariga D vitamini preparatlari, kaltsiy qo'shimchalari, massaj va davolovchi jismoniy tarbiya kiradi. Erta tashxis qo'yish va to'g'ri davolash raxitning og'ir oqibatlarini oldini oladi.

Xulosa

Tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Raxit kasalligi ko'p omilli bo'lib, asosan D vitamini tanqisligi va kaltsiy-fosfor almashinuvining buzilishi bilan bog'liq.
2. Kasallikning kechishi uch bosqichda kechadi: boshlang'ich, avj olgan va tiklanish bosqichlari.
3. O'z vaqtida tashxis va davolash raxitning uzoq muddatli oqibatlarini sezilarli kamaytiradi.
4. Profilaktika — bola hayotining ilk oylaridan boshlab quyosh nuri, muvozanatli ovqatlanish va D vitamini profilaktik dozasini to'g'ri qo'llashdan iborat

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. WHO. Vitamin D supplementation guidelines for infants. Geneva, 2021.
2. Holick M.F. The role of vitamin D for bone health and immune system. New England Journal of Medicine, 2018.
3. Педиатрия: Национальное руководство. Под ред. Баранова А.А. Москва, 2020.
4. Karimov A., Usmonova Z. Bolalarda raxit kasalligi klinikasi va davolash. Pediatriya jurnali, 2019.
5. DeLucia M.C., et al. Rickets in infants and children: epidemiology and pathogenesis. Pediatrics, 2020.